

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**AMALIY TILSHUNOSLIK, O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

**PEDAGOGIK AMALIYOT**

# REFERAT

**BAJARDI: 403-GURUH TALABASI O‘ROQOVA DIYORA**

**Metodist: dots.Boltayev M.**

# TARJIMAYI HOL

Men, O‘roqova Diyora Baxadirjonovna, 1994-yil 16-yanvarda Samarqand shahrida tug‘ilganman. 2000-yil Samarqand shahar 17-umumta’lim maktabining 1-sinfiga qabul qilinib, 2009-yilda ushbu maktabning 9-sinfini namunali xulq va a’lo baholar bilan tugatdim. So‘ng Samarqand san’at kollejida tahsil olganman. 2012-yilda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetiga shartnoma asosida o‘qishga qabul qilindim. Hozirda ushbu fakultetning IV bosqich talabasiman.

# 17-UMUMTA'LIM MAKTABI TARIXI

**Maktab tarixiy sahifalari.**

Maktab 1960-yil 25-avgustda moliya texnikumining binosida ochilgan. Yo'nalishi bo'yicha uzaytirilgan maktab edi. O'quvchilar va o'qituvchilar jamoasi Samarqand shahridagi 46-maktab jamoasidan tashkil topgan edi.

**Maktab pasporti.**

- Maktabga asos solingan yil – 1960
- Maktab quvvati – 820 o'rin
- Maktab 4 ta zamonaviy binodan iborat.
- Maktabda gaz va isitish, suv, chiqindi suv quvurlari, yoritgichlar, telefon mavjud.
- O'qitish – 2 navbatda.
- O'qitish tili – o'zbek va rus tillarida.
- Chet tili – ingliz tili.
- Maktabda 150-o'rinli faollar zali, sport zal mavjud.
- Badiiy gimnastika, raqs o'rgatish uchun kichik zal, 100 o'ringa mo'ljallangan oshxona bor.
- Kompyuter sinfi, zamonaviy jihozlangan kimyo, fizika, biologiya xonalari bor.

Manzil: 7030008 Samarqand shahri, Firdavsiy ko'chasi 41.
Tel: 233-06-22.

# AMALIYOTCHI TALABANING ISH REJASI

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek filologiyasi bo'limi bitiruvchi kurs talabasi Urogova Diyora ning 2015-2016-o'quv yilida Samarqand shahar 17-o'rta umumta'lim maktabida o'tadigan pedagogik amaliyoti davri uchun

**ISH REJASI**

| T.r. | Rejalashtirilgan tadbir | Bajarilish muddati | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1. | Pedagogik maliyot kundaligi tutish va uni to'ldirib borish. | Pedagogik amaliyot davrida. | |
| 2. | Ona tili va adabiyot fanlaridan DTS asosidagi o'quv dasturini yozib olish, o'rganish. | Birinchi haftada, pedagogik amaliyot davrida. | |
| 3. | Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasini yozib olish, o'rganish, tadbirlarda qatnashish. | Birinchi haftada, pedagogik amaliyot davrida. | |
| 4. | Ona tili va adabiyot fanlaridan kalendar va choraklik ish rejani yozib olish, o'rganish. | Birinchi haftada, pedagogik amaliyot davrida. | |
| 5. | Maktab o'qituvchilari hamda amaliyotchi talabalarning darslarini kuzatish, dars tahlillarida ishtirok etish. | Birinchi haftada, pedagogik amaliyot davrida. | |
| 6. | Kuzatilgan darslar tahlili daftari tutish va uni to'ldirib borish. | Birinchi haftada, pedagogik amaliyot davrida. | |
| 7. | O'tiladigan darslar uchun konspekt daftari tutish, dars ishlanmalari tayyorlash. | Birinchi haftada, pedagogik amaliyot davrida. | |
| 8. | O'tiladigan mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar, testlar, kartochkalar, krossvord va boshqalar tayyorlash | Pedagogik amaliyot davrida. | |
| 9. | Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan haftalik hisobot yozish va rahbarga topshirish. | Pedagogik amaliyot davrida. | |
| 10. | Biriktirilgan sinf o'quvchilariga va alohida bir o'quvchiga tavsifnoma yozish. | Pedagogik amaliyot davrida. | |
| 11. | Pedagogik amaliyot davri uchun hisobot tayyorlash. | Pedagogik amaliyot tugagach. | |
| 12. | Fan o'qituvchisi, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va direktor imzosi bilan tavsifnoma olish. | Pedagogik amaliyot tugagach. | |
| 13. | Amaliyot davridagi faoliyati bo'yicha metodist-o'qituvchi tavsifnomasini olish. | Pedagogik amaliyot tugagach. | |
| 14. | Pedamaliyot natijalari bo'yicha taqdimotga tayyorgarlik ko'rish, hujjatlarni tayyorlash. | Pedagogik amaliyot tugagach. | |
| 5. | Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot berib, taqdimotdan o'tish. | Jadval asosida | |

**Pedagogik amaliyot rahbari** dotsent Boltayev M.

**Pedagogik amaliyotchi-talaba** Urogova D.

# KUNDALIK


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
Filologiya
fakulteti
PEDAGOGIK AMALIYOT BO'YICHA
TALABANING
KUNDALIGI
(familiyasi)
(ismi)
(otasining ismi)
Kurs IV
Guruh 03
Yo'nalish
Samarqand – 2015


KUNDALIK


Pedagogik amaliyot yo'llanmasi

# O'QUVCHILAR OTA - ONALARI BILAN ISHLASH



23 noyabr

Husenov Abulfayzning ota-onasi bilan suhbatlashdim. Abulfayz dars davomida tinch o'tirmasligi, dars bo'layotganiga qaramasdan turib yuradi. Darslikni olib kelmasligi, sinf ish daftaridagi mavzular ham to'liq emasligini aytdim. Onasi b-n suhbatlashganimizda uning darsda tinch o'tirmasligidan xabardor emasligini aytib o'tdi va o'g'lining aqli bilan alohida shug'ullanishga va'da berdi.

# BIR O‘QUVCHIGA VA BIR SINF O‘QUVCHILARIGA TAVSIFNOMA






Samarqand shahar
17-o'rta umumta'lim maktabining
6-"G" sinf o'quvchisi, 2003- yilda
tug'ilgan Vohidov Zarshedga

TAVSIFNOMA

Pedagogik amaliyotga kelib, darslarni tahlil eta boshlaganimdayoq bu o'quvchining nafaqat bilim darajasi, balki xulq-atvori, tarbiyasi ham talab darajasida emasligiga amin bo'ldim.

Vohidov Zarshed dars davomida diqqatini jamlamasdan shovqin solib o'tiradi. Darslarda faol qatnashmaydi. o'zlashtirishi ancha past. Og'zaki nutqi va yozma savodxonligi talab darajasida emas. Uy vazifalarini vaqtida bajarmaydi. Daftari va kitobining yo'qligini bahona qiladi. Ko'pincha o'quv qurollarini uyida unutib qoldiradi.

Vohidov Zarshed o'qituvchilarining gapiga quloq solmaydi. Dars vaqtida shovqin soladi, sinfdoshlariga ko'p xalaqit beradi.

Sinf rahbari: ______ Mirzayeva N.Q.
Amaliyotchi talaba: ______ O'roqova D.B.






Samarqand shahar
17-o‘rta umumta’lim maktabining
6-“G” sinf o‘quvchisi, 2003- yilda
tug‘ilgan Elomonova Marjonaga

TAVSIFNOMA

Pedagogik amaliyot davomida Elomonova Marjona intizomli, zukko, tirishqoq va bilimli o‘quvchi sifatida o‘zini ko‘rsatdi. Bilimlarni qunt bilan o‘rganishga doimo harakat qiladi. Darslarga diqqat bilan quloq soladi, sababsiz dars qoldirmaydi.

Elomonova Marjona “ Ona tili” va “ Adabiyot” fanlariga alohida qiziqadi. Ustozlari tomonidan berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajaradi. U maktab va sin miqyosidagi tashkiliy, jamoat ishlarida doimo faol qatnashadi.

Elomonova Marjona to‘g‘ri so‘zligi, do‘stlariga mehribonligi sababli ustozlari sinfdoshlarining hurmatiga sazovor bo‘lgan .

Sinf rahbari: ______ Mirzayeva N.Q.
Amaliyotchi talaba: ______ O‘roqova D.B.

# Taqvimiy ish reja



| T/r | Mavzu | Soat | O'tish vaqti | Uyga vazifa |
|---|---|---|---|---|
| | Ona tili (I chorak) | | | |
| 1-dars | O'zbekistonda Davlat va boshqa tillarning rivoji | 1 | 2. 09 | 5-mashq |
| 2-dars | Unli tovushlar | 1 | 2. 09 | 10-mashq |
| 3-dars | Undosh tovushlar | 1 | 3. 09 | 15-mashq |
| 4-dars | O'zbek alifbosi va imlo qoidalari | 1 | 7. 09 | 19-mashq |
| 5-dars | Bo'g'in va urg'u | 1 | 7. 09 | 23-mashq |
| 6-dars | Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar | 1 | 9. 09 | 27-mashq |
| 7-dars | So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari | 1 | 9. 09 | 32-mashq |
| 8-dars | Eskirgan va yangi so'zlar. Atamalar | 1 | 10. 09 | 38-mashq |
| 9-10-d | 1-SNL Nazorat diktanti | 2 | 14-16. 09 | takrorlash |
| | Morfologiya | | | |
| 11-dars | Morfologiyaga kirish | 1 | 14. 09 | 41-mashq |
| 12-dars | So'z tarkibi | 1 | 16. 09 | 45-mashq |
| 13-dars | Asos va qo'shimchalar | 1 | 19. 09 | 49-mashq |
| 14-dars | Qo'shimchalar tasnifi | 1 | 21. 09 | 52-mashq |
| 15-dars | So'z yasovchi qo'shimchalar | 1 | 21. 09 | 57-mashq |
| 16-dars | Tub va yasama so'zlar | 1 | 23. 09 | 62-mashq |

# DARS ISHLANMASI












# TARBIYAVIY SOATLAR



Tasdiqlayman

maktab direktori

Daniyarova N.N.

| № | O`tiladigan mavzular | Soati | O`tish vaqti |
|---|---|---|---|
| 1. | Mustaqillik – muqaddas ne'mat | 1 | 4.09 |
| 2. | Ozodalik - sog`lik garovi | 1 | 11.09 |
| 3. | Tabiat – umumiy uyimiz | 1 | 12.09 |
| 4. | Yo` l harakati qoidalariga oid bilimlarni tekshirish (Yo`l harakati qoidalari) | 1 | 25.09 |
| 5. | Ustozga ehtirom (1 oktabr – O`qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati) | 1 | 2.10 |
| 6. | Tilga e'tibor, elga e'tibor ( Filologiya fanlari oyligi doirasida) | 1 | 9.10 |
| 7. | Til-dil kaliti (O'zbekiston Respublikasi "Da·ıat tili haqida"gi Qonun qabul qilingan kun munosabati bilan). | 1 | 16.10 |
| 8. | Transport vositalarining harakati. (yo'l harakati qoidalari) | 1 | 23.10 |
| 9. | Mening kelajak orzuim | 1 | 30.10 |
| 10. | Til bilgan – el biladi. (Rus tili fani oyligi doirasida). | 1 | 13.11 |
| 11. | Ramziy timsollar (18 noyabr - O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan). | 1 | 20.11 |
| 12. | Haydovchining ogohlantiruvchi ishoralari. (yo'l harakati qoidalari) | 1 | 27.11 |
| 13. | O'z huquqingizni bilasizmi? (8 dekabr – Konstitutsiya kuni munosabati bilan). | 1 | 4.12 |
| 14. | O'zbekiston Respublikasi madhiyasi (10 dekabr - O'zbekiston Resp:blikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan). | 1 | 11.12 |
| 15. | Tartibga soluvchining ishoralari. (yo'l harakati qoidalari) | 1 | 18.12 |
| 16. | Assalom yangi yil! (Yangi yil bayrami yaqinlashishi munosabati bilan). | 1 | 25.12 |
| 17. | Ona yurtim - oltin beshigim! (14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan). | 1 | |






**10-mavzu: Til bilgan el biladi / Rus tili fan oyligi doirasida)**

**Kun shiori:** "Qanchalik ko'p til bilsang, sening ma'rifiy boyliging"

**Maqsad:** O`quvchilarda rus tili fan oyligida uyushqoqlik bilan faol ishtirok etishi, rus tiliga bo`lgan hurmatni rivojlantirishni uqtirish.

**Natija:** O`quvchilarning erkin fikrlashi, tassurotlari va olgan xulosasi.

**Foydalanadigan ko`rgazmali qurollar:** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning: "Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch", "O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitoblari, shiorlar, plakatlar, devoriy gazetalar, slaydlar, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar.

**Doskada:** "Maksim Gorkiyning "Ona" romani yozildi shu tilda,
Pushkinning she'rlari jarangladi shu tilda"

O`qituvchi:

Rus tili ham boy tillardan biri. Bizning yurtimizda deyarli hamma viloyatlarda rus xalqi necha asrlardan buyon biz bilan yashab kelmoqda. Biz ularning tilini bilamiz, ular bizning tilimizni hurmat qiladi. Rus tili jahon tillaridan biri hisoblanadi.Biz bugun siz bilan rus xalqining otashnafis shoirlaridan biri Aleksandr Sergeyevich Pushkin haqida siz bilan qisqacha suhbatlashamiz.

A.S. Pushkinning Toshkent shahrida haykali, uning nomida ko`chalar ham bor. U 1799-yilning 6-iyunida Moskva shahrining Nemislar ko`chasida yashovchi qadimiy dvoryanlardan bo`lmish iste'fodagi mayor Sergey Pushkin oilasida tug`ildi.Pushkinlar o`qimishli, adabiyotga qiziqadigan, ijod ahli bilan bordi-keldi qiladigan kishilar edi. Pushkinning she'riy ijodi o`qiyotgan paytida boshlandi. Yosh shoirning dastlabki she'ri 1814-yilda litseyda chiqadigan "Yevropa xabarlari" jurnalida chop etildi. Litseyda o`qib yurganidanoq Pushkinning tengsiz iste'dod egasi ekanligi ayon bo`lgandi. O`limidan ikki yil oldin litseydagi imtohonlarning birida qatnashgan keksa Derjavin Pushkinning she'rini eshitgach, uning buyuk shoir bo`lajagini bashora qiladi.

Pushkin ijodi o`zbek o`quvchilariga juda yaxshi tanish. Shoirning asarlari o`zbek shoirlari tomonidan tarjima qilingan.

Uyga vazifa: O`quvchilar rus tilida she'rlar yod olishadi

# DARS TAHLILI DAFTARI






# BAYONNOMA

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek filologiyasi bo'limi to'rtinchi kurs talabalarining Samarqand shahridagi 17-o'rta umumta'lim maktabida pedagogik amaliyot davrida bo'lib o'tgan yig'lishi bayonnomasidan

**KO'CHIRMA**

Samarqand shahri
2015-yil 9-dekabr

**QATNASHDILAR:**
amaliyotchi-talabalar, fan o'ituvchilari, sinf rahbarlari, metodist-o'qituvchi dots. Boltayev M.

Yig'ilish raisi: Eshquvvatova S.
Yig'ilish kotibi: Hasanova X.

**KUN TARTIBI:**

1. Pedagogik amaliyotchi O'rogova Diyora ning 6-"g" sinf o'quvchilariga Ona tili fanidan "Qo'shma fe'llar" mavzusida o'tgan darsi muhokamasi.

**ESHITILDI:** yig'ilish raisi Eshquvvatova haida bo'lgan dars yuzasidan O'rogova Diyoraga so'z berdi. U o'z so'zida amaliyotga kelgan kunidan boshlab 6-"g" sinf o'quvchilari bilan ishlab kelayotganligi, haftasiga har hafta 2 soat adabiyotdan 5 soat ona tilidan dars o'tayotganligi, bu darsga tayyorgarlik ko'rib, ko'rgazmali vositalar, savol va topshiriqlar, uyga vazifani tekshirish va yangi mavzuni o'tishda ulardan unumli foydalanishga harakat qilganligini aytib o'tdi.

**SO'ZGA CHIQISHDI:** amaliyotchilar Abdurazzoqov Oxunjon, fan o'qituvchisi Xudoyberdiyeva Malika, metodist M. Boltayevlar dars muhokamasi bo'yicha o'z fikrlarini bildirib, O'rogova Diyora darsni sinfni o'z nazoratida olib borganligini ta'kidlashdi.

Mazkur masala muhokama etilgach, yig'ilishda

**QAROR QILINDI:**

1. Pedagogik amaliyotchi O'rogova Diyoraning 6-"g"-sinfda ona tili fanidan "Qo'shma fe'llar" mavzusida o'tgan darsi yaxshi dars deb baholansin.
2. Dars muhokamasida aytilgan mulohazalarni e'tiborga olish amaliyotchi O'rogova Diyora zimmasiga yuklatilsin.

**Yig'ilish raisi:** [signature] Eshquvvatova S.

**Yig'ilish kotibi:** [signature] Hasanova X.

# Said Ahmadning hayoti va ijodi:



O'zbekistonning mashhur hajvchi yozuvchisi Said Ahmad 1920-yilning 10- iyunida Toshkent shahrining «Samarqand darvoza» mahallasida ziyoli oilada tug'ilgan. Said Ahmad bolalik, yillari haqida xotira kitoblarida shunday deb yozadi: «Men tug'ilgan... mahallaning guzariga yilda ikki marta dor keladi. O'sha paytlarda mashhur bo'lgan Solih dorbozning o'yinlariga, masxarabozlarning qiliqlariga qoyil qolardik. Bir kuni masxaraboz qopdan shisha siniqlarini to'kib, ustiga stoldan sakradi, o'yin tushdi.

Men ham qo'ni-qo'shnilarnikidan singan shishalarni ikki chelak qilib yig'ib, bog'imizga olib kirdim. Bir joyga to'kib, ustiga devordan sakradim. Oyoqlarimni shisha tilib tashladi. O'n kungacha oyoq bosolmay uyda yotganman.

Bir marta dor o'ynab yiqilganman. Oyog'im singan. Rais ko'chasidagi Maxsum tabib taxtakachlab qo'ygan. Bir oygacha qo'ltiqtayoqda yurganman.

Uch marta tomdan yiqilganman. (Bir martasida qaynab turgan samovarning yoniga tushganman.) Xullas, yetti marta qo'lim chiqqan.

# Said Ahmad Husanxo‘jayev

Hayot yo’li

1920 – yilda Toshkent

1943- yil “xalq dushmani”

1953-yil oqlangan

Faoliyat

“Mushtum” jurnali

“Yosh leninchi” gazetasi

“O’zbekiston Davlat radio qo`mitasi”

“Qizil O’zbekiston” gazetasi

“Sharq yulduzi”

Ta’lim

Toshkent Rassomlik bilim yurti

Toshkent Pedagogika instituti









Said Ahmad Oybekning psixologik tasvir mahoratini, G‘afur G‘ulom yumori, Abdulla Qahhorning ixcham va teran fikrlash fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan adib.

# Ijodiy merosi

- “Tortiq” (1940)
- “Xandon pista”
- “Bir o‘pichning bahosi”
- “Yo‘qotganlarim va topganlarim”
- “Qorako‘z majnun”
- “Kiprikdagi tong”
- “Tanlangan asarlari”
- “Er yurak”
- “Farg`ona hikoyalari”
- “Cho`l burguti
- “Kuyov”
- “Muhabbat”
- “Kelinlar qo’zg’oloni”

# Dars Jarayonidan foto lavhalar







Dars Jarayonidan foto lavhalar



# Amaliyot davridan foto lavhalar







# BAYRAM SENARIYSI



***Baxtimiz Qomusi***

*Sinf xonasi bayramona bezatilgan:devoriy gazeta,bolalar chizgan rasmlar,sharlar.Yoqimli kuy yangrab turadi.*

*-Kulib issiq yuzimiz,*
*Porlab turar ko'zimiz.*
*Assalomu alaykum*
*Eng birinchi so'zimiz.*

***Hamma:*** *Mehribon onalarga,*
*Jonkuyar otalarga.*
*Qadrdan ustozlarga*
*Assalomu alaykum.*

***1-o'quvchi:*** *Assalomu alaykum, bayramimizning aziz mehmonlari! "Baxtimiz Qomusi" deb atalgan tadbirimizga xush kelibsiz!*

***Davlat madhiyasi yangraydi.***

***2-o'quvchi:*** *Har bir mamlakatda shunday bir muhim kitob borki,bu kitobni Konstitutsiya deb ataydilar. Konstitutsiyada butun mamlakatga ham, alohida insonlarga ham tegishli bo'lgan muhim ma'lumotlar bor. Bizning O'zbekistonimizning hamshunday kitobi bo'lib , bu kitob O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi deb ataladi.*

***3-o'quvchi:*** *1991-yil 31-avgust kuni ona O'zbekistonimiz ozod, mustaqil Respublika deb e'lon qilindi. Davlatimiz o'z Konstitutsiyasiga, chegarasiga,davlat tiliga,milliy valutasi so'mga,armiyasiga ega bo'ldi.*

***4-o'quvchi:*** *1992 - yil 8-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiyamiz olti bo'lim,yigirma olti bob,128-moddadan iborat. Bu kun bayram sifatida nishonlanadi, hamma dam oladi.*

***Sinf qizlari ijrosida raqs.***

***5-o'quvchi:****Har bir kishining tug'ilib o'sgan joyiunung aziz va mo'tabar Vatani hisoblanadi.BizO'zbekiston nomi bilan dunyoga mashhur bo'lgan go'zal Vatanda yashayapmiz.*

***6-o'quvchi:****Vatan mustaqilligini mustahkamlashda har bir shaxs o'z hissasini qo'shishni oliy burchi deb hisoblaydi.Bu ishda o'quvchilar ham o'z bilimi , maktab ishlarida qatnashishi,yaxshi hulqi va odobi bilan hissasini qo'shadi.*

***7-o'quvchi:*** *Konstitutsiyada shaxs va fuqarolarning barcha huquq, erkinlik va burchlari belgilab berilgan.Endi konstitutsiyamizning ayrim moddalari bilan yaqindan tanishib chiqamiz.*

***8-o'quvchi:*** *1-modda.O'zbekiston - suveren demoktatik Respublika. Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi O'zbekiston ozod ,hur Vatan! Quchoqlari to'la nur Vatan! Istiqloling abadiy bo'lsin, Dunyolar turguncha tur,Vatan!*

*Tuprog'ingda jannat nafasi,*
*Sen bobomning orzu-havasi*
*Iftixorim yuksak: Vatanim-*
*O'zbekiston Respublikasi!*

***9-o'quvchi:*** *Oilamizda barchamiz o'zbek tilida gaplashamiz. Bu tilda gaplashishni tug'ilganimizdan boshlab asta-sekin o'rganamiz.Bu tilni biz, eng avvalo ,onamizdan eshitganimiz uchun uniOna tili deymiz.*

***10-o'quvchi:*** *4-modda.O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.*

*Shu tilda Temur bobo*

# BAYRAM TADBIRIDAN







# KOMISSIYANING AMALIYOTCHIGA BERGAN BAHOSI



**Pedagogik amaliyot davrida dars mashg'ulotlari sifat ko'rsatgichini baholash me'zoni**

Sinf 6-[illegible] Fan Ona tili

Mavzu [illegible]

Amaliyotchi talaba [illegible] Diyora

Tahlil qiluvchilar: 1. [illegible] Zaida 2. [illegible] 3. [illegible] Kamola

sana 24.12.15 imzo imzo imzo

| № | Mashg'ulotga (o'qituvchi) oid ko'rsatkichlar mazmuni | Yuqori ball | Qo'yilgan ball | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | **1. Darsning tashkiliy ko'rsatkichlari** | **(14 ball)** | | |
| 1 | Darsning belgilangan vaqtda boshlanishi | 4 | 4 | |
| 2 | Sinfning darsga tayyorlik holati | 2 | 2 | |
| 3 | Sinf jurnalini rasmiylashtirish holati | 2 | 1 | |
| 4 | Davomat ko'rsatkichi | 6 | 4 | |
| | **2. Darsning o'quv-uslubiy ta'minot darajasi (9 ball)** | | | |
| 5 | Mavzuga doir o'quv-uslubiy adabiyotlarning mavjudligi | 3 | 3 | |
| 6 | Ko'rgazmali va tarqatma materiallar mavjudligi | 3 | 3 | |
| 7 | Mavzuning taqvim rejaga mosligi | 3 | 3 | |
| | **3. Darsning ilmiy-uslubiy ko'rsatkichlari (21 ball)** | | | |
| 8 | Oldingi mavzuni o'zlashtirish sifatini tekshirish | 2 | 1 | |
| 9 | Yangi mavzuni oldingi mavzular bilan bog'lanishi | 2 | 1 | |
| 10 | Mavzu dolzarbligini asoslash va hayot bilan bog'lash | 3 | 1 | |
| 11 | Faktlarning asoslanishi | 4 | 3 | |
| 12 | O'quvchilarning faollik darajasi | 4 | 3 | |
| 13 | O'quvchilarning mavzuni qabul qilish darajasi | 4 | 4 | |
| 14 | Yangi mavzuni o'zlashtirish sifatining nazorati | 2 | 1 | |
| | **4. Darsning bayon usuli** | **(30 ball)** | | |
| 15 | Dars bayon usulining sifat darajasi | 6 | 6 | |
| 16 | Darsning interfaollik darajasi | 6 | 4 | |
| 17 | Darsda axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi | 4 | 2 | |
| 18 | Darsda ilg'or ped. tex-lardan foydalanish darajasi | 6 | 5 | |
| 19 | Darsning ko'rgazmalilik darajasi | 4 | 4 | |
| 20 | O'qituvchining nutq madaniyati | 4 | 3 | |
| | **5. Darsning xulosa qismi** | **(6 ball)** | | |
| 21 | Mavzu bo'yicha xulosalar va topshiriq berilishi | 2 | 2 | |
| 22 | O'tilgan mavzo' bo'yicha o'quvchilar bilimining baholanishi | 2 | 2 | |
| 23 | Kelgusi dars mavzusi bo'yicha ma'lumot berilishi | 2 | 1 | |
| | **6. Darsning va o'qituvchining sifat darajasi (20 ball)** | | | |
| 24 | Darsning tarbiyaviylik darajasi | 4 | 3 | |
| 25 | Darsning amaldagi talablarga javob berish darajasi | 4 | 3 | |
| 26 | O'qituvchining fan bo'yicha bilim darajasi | 6 | 5 | |
| 27 | O'qituvchining pedagogik mahorat darajasi | 6 | 5 | |
| | Umumiy ball | 100 | 79 | |

**7. O'qituvchi va dars sifati yuzasidan qo'shimcha fikr-mulohazalar**

Dars yaxshi tashkil etilgan. Darsda turli metodlardan foydalanilgan. Dars [illegible] edi.



**Pedagogik amaliyot davrida dars mashg'ulotlari sifat ko'rsatgichini baholash me'zoni**

Sinf 6-"[illegible]" Fan Adabiyot

Mavzu Said Ahmadning hayoti va ijodi

Amaliyotchi talaba [illegible] Diyora

Tahlil qiluvchilar: 1. Abdurazzoqova [illegible] 2. [illegible] Nigina 3. [illegible] Zaida

sana 23.12.15 imzo imzo imzo

| № | Mashg'ulotga (o'qituvchi) oid ko'rsatkichlar mazmuni | Yuqori ball | Qo'yilgan ball | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| | **1. Darsning tashkiliy ko'rsatkichlari** | **(14 ball)** | | |
| 1 | Darsning belgilangan vaqtda boshlanishi | 4 | 4 | |
| 2 | Sinfning darsga tayyorlik holati | 2 | 2 | |
| 3 | Sinf jurnalini rasmiylashtirish holati | 2 | 1 | |
| 4 | Davomat ko'rsatkichi | 6 | 5 | |
| | **2. Darsning o'quv-uslubiy ta'minot darajasi (9 ball)** | | | |
| 5 | Mavzuga doir o'quv-uslubiy adabiyotlarning mavjudligi | 3 | 3 | |
| 6 | Ko'rgazmali va tarqatma materiallar mavjudligi | 3 | 3 | |
| 7 | Mavzuning taqvim rejaga mosligi | 3 | 3 | |
| | **3. Darsning ilmiy-uslubiy ko'rsatkichlari (21 ball)** | | | |
| 8 | Oldingi mavzuni o'zlashtirish sifatini tekshirish | 2 | 2 | |
| 9 | Yangi mavzuni oldingi mavzular bilan bog'lanishi | 2 | 1 | |
| 10 | Mavzu dolzarbligini asoslash va hayot bilan bog'lash | 3 | 2 | |
| 11 | Faktlarning asoslanishi | 4 | 3 | |
| 12 | O'quvchilarning faollik darajasi | 4 | 4 | |
| 13 | O'quvchilarning mavzuni qabul qilish darajasi | 4 | 4 | |
| 14 | Yangi mavzuni o'zlashtirish sifatining nazorati | 2 | 2 | |
| | **4. Darsning bayon usuli** | **(30 ball)** | | |
| 15 | Dars bayon usulining sifat darajasi | 6 | 5 | |
| 16 | Darsning interfaollik darajasi | 6 | 6 | |
| 17 | Darsda axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi | 4 | 3 | |
| 18 | Darsda ilg'or ped. tex-lardan foydalanish darajasi | 6 | 5 | |
| 19 | Darsning ko'rgazmalilik darajasi | 4 | 4 | |
| 20 | O'qituvchining nutq madaniyati | 4 | 4 | |
| | **5. Darsning xulosa qismi** | **(6 ball)** | | |
| 21 | Mavzu bo'yicha xulosalar va topshiriq berilishi | 2 | 2 | |
| 22 | O'tilgan mavzo' bo'yicha o'quvchilar bilimining baholanishi | 2 | 2 | |
| 23 | Kelgusi dars mavzusi bo'yicha ma'lumot berilishi | 2 | 1 | |
| | **6. Darsning va o'qituvchining sifat darajasi (20 ball)** | | | |
| 24 | Darsning tarbiyaviylik darajasi | 4 | 3 | |
| 25 | Darsning amaldagi talablarga javob berish darajasi | 4 | 3 | |
| 26 | O'qituvchining fan bo'yicha bilim darajasi | 6 | 6 | |
| 27 | O'qituvchining pedagogik mahorat darajasi | 6 | 5 | |
| | Umumiy ball | 100 | 88 | |

**7. O'qituvchi va dars sifati yuzasidan qo'shimcha fikr-mulohazalar**

Dars yaxshi tashkillashtirilgan. Darsning ko'rgazmalilik darajasi yaxshi. Dars a'lo darajada o'tdi.

# YAKUNIY HISOBOT

**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti o‘zbek filologiyasi fakulteti IV bosqich 03-guruh talabasi O‘roqova Diyoraning 2-noyabrdan 26-dekabrgacha bo‘lgan vaqt davomida Samarqand shahar 17-umumiy o‘rta ta'lim maktabida olib borilgan pedagogik amaliyot yuzasidan tayyorlagan yakuniy**

## Hisoboti

27-noyabr kuni soat 12:00 da fakultet binosida barcha bitiruvchi bosqich talabalari hamda o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchilari ishtirokida pedagogik amaliyotning boshlanishi munosabati bilan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishni metodist B. Muhiddinova olib bordi. Yig‘ilishda talabalarga pedagogik amaliyotni qay tartibda olib borish, nimalarga e‘tibor qaratish, amaliyotchi talabadan talab qilinadigan hujjatlar, hujjatlar bilan ishlash tartibi, amaliyot muddati, yakuniy baholash tartibi va namunaviy o‘quv dasturi haqida ma‘lumotlar berildi. Shundan so‘ng talabalarga o‘zlariga biriktirilgan metodist o‘qituvchilar va amaliyot o‘tiladigan ta‘lim muassasalari e‘lon qilindi. O‘zim va yana o‘n uch nafar talaba pedagogik amaliyotni o‘tash uchun Samarqand shahar 17-umumiy o‘rta ta'lim maktabiga yuborildik, amaliyot rahbarimiz etib metodist M.Boltayev tayinlandi.

2-noyabr kuni soat 9:00 da Samarqand shahar 17-umumiy o‘rta ta'lim maktabining faollar zalida pedagogik amaliyotni o‘tash uchun kelgan talabalar hamda maktab ma’muriyati ishtirokida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda so‘zga chiqqanlar maktab tarixi, bugungi hayoti, undagi tartib qoidalar, mavjud sinflar va o‘quvchilar soni, jamoa hayoti haqida amaliyotchi talabalarga ma’lumotlar berishdi.

Fan o‘qituvchilari tanishtirildi. Pedagogik amaliyotni o‘tash uchun kelgan 14 nafar talabaning hammasi "Ona tili" va "Adabiyot" o‘qituvchilariga biriktirildi. Men M. Xudoyberdiyevaga biriktirildim.

2-noyabrdan 9-noyabrga qadar biz maktab o‘quvchilari ta'tilda bo‘lganligi uchun har kuni soat 9:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida o‘zimizga biriktirilgan fan o‘qituvchilari bilan birgalikda kerakli hujjatlar ustida ishladik. Taqvimiy ish reja yozish, dars ishlanmasi hamda tarqatma materiallar tayyorlashni o‘rgandik. 9-noyabrdan 24-noyabrga qadar fan o‘qituvchisi M. Xudoyberdiyeva va boshqa fan o‘qituvchilarining dars o‘tish jarayoniga qatnashib, o‘qituvchining pedagogik mahorati, darsni qanday tartibda olib borishi, o‘quvchilar bilan ishlashi, vaqt taqsimotida nimalarga e'tibor qaratish lozimligi, uyga vazifani so‘rash, yangi mavzuni bayon etish va darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni baholashga doir ko‘nikmalar hosil qilindi.

11-noyabrdan e'tiboran o‘zimga biriktirilgan sinf 6-"G" sinf o‘quvchilari bilan tanishdim. 23-noyabrdan boshlab ularga muntazam ravishda "Ona tili" va "Adabiyot" fanlaridan tajriba-sinov darslarini o‘tdim hamda sinf rahbari sifatida tarbiyaviy soatlar olib bordim. Bundan tashqari ushbu davr mobaynida faqat mazkur sinf bilan cheklanib qolmasdan boshqa sinflarda pedagogik amaliyotchi talabalarning tajriba-sinovlarini ham kuzatib bordim.

24-noyabrdan 23-dekabrgacha o‘zimga biriktirilgan sinfga "Ona tili" va "Adabiyot" fanlaridan an’anaviy tajriba-sinovi darslaridan tashqari ochiq darslar ham o‘tdim. Jumladan, 25-noyabr kuni 6-"G" sinfiga "Adabiyot" fanidan Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasi tahlili mavzusida, 3-dekabr kuni "Ona tili" fanidan "Qo‘shma Fe’llar" mavzusida, 4-dekabr kuni "Ona tili" fanidan "Mustahkamlash" mavzusida, 21-dekabr kuni "Ona tili" fanidan "Kelasi zamon shakllari" mavzusida, 9-dekabr kuni "Adabiyot" fanidan O‘tkir Hoshimov hayoti va "Urushning so‘nggi qurboni" hikoyasi tahlili mavzusida shuningdek, 23-dekabr kuni "Adabiyot" fanidan Said Ahmad hayoti va ijodi, "Qoplon" hikoyasi tahlili mavzusida ochiq darslar o‘tdim. Darslarni metodist domlamiz M. Boltayev, fan o‘qituvchisi M. Xudoyberdiyeva hamda amaliyotchi talabalar kuzatib, darsda erishilgan yutuqlar, xato va kamchiliklar yuzasidan o‘zlarining fikrlarini bildirib borishdi. Pedagogik amaliyotdan 26-dekabr kuni ta'tilga chiqdik va ta'til davomida 11-yanvargacha amaliyot yuzasidan hujjatlarni taxladik.

# E’tiboringiz uchun rahmat !!!